



IMKONIYATNI BIZ YARATAMIZ JAMIYATNING HAR BIR A'ZOSI UCHUN TENG IMKONIYAT

Bekbergenova Ulzada Joldasbaevna

Ijtimoiy fanlar kafedrası

Sotsiologiya yo'nalishi 3-kurs talabasi

Tarix fakulteti

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti

E-mail:ulzadabekbergenova4@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada nogironligi bo'lgan shaxslar uchun teng imkoniyatlar yaratishning ijtimoiy, huquqiy va ma'naviy ahamiyati yoritiladi. 3-dekabr — Xalqaro nogironlar kuni munosabati bilan jamiyatning inklyuzivlikka doir mas'uliyati, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari, shuningdek, inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan xalqaro va milliy tashabbuslar tahlil qilinadi. Maqola “Imkoniyatni biz yaratamiz” g'oyasi asosida barchaning teng ishtiroki, bandligi, ta'limga kirish, tibbiy-ijtimoiy xizmatlardan foydalanish imkonlari hamda jamiyatdagi stereotiplarni yengish zarurati haqida keng qamrovli fikrlar beradi.

Kalit so'zlar: Nogironlar kuni, teng imkoniyatlar, inklyuziv jamiyat, ijtimoiy adolat, nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlari barqaror rivojlanish.

Nogironlik, invalidlik — kasallik, shikastlanish, mayib-majruhlik, baxtsiz hodisalar tufayli butunlay yoki ma'lum muddat mehnat qobiliyatini yo'qotish. Jismoniy yoki aqliy nuqsonlari borligi sababli ijtimoiy yordam va himoyaga muhtoj shaxs nogiron hisoblanadi. O'zbekistonda Nogironlik Tibbiy mehnat ekspertiza komissiyasi (TMEK) tomonidan belgilanadi. Nogironlik mehnat qobiliyatini yo'qotish darajasiga qarab 3 guruhga bo'linib, vaqtincha (6-12 oy) yoki muddatsiz qilib tayinlanadi. 1-guruh nogironligiga mehnat qobiliyatini butunlay yo'qotgan va boshqaning doimiy parvarishi, yordami, nazoratiga muhtoj bo'lgan shaxslar; 2-guruh nogironiga mehnat qobiliyatini butunlay yo'qotgan, lekin boshqalarning doimiy parvarishiga muhtoj bo'lmagan, shuningdek, mehnat turidan qat'iy nazar, unda uzoq muddat ishlay olmaydigan shaxslar; 3-guruh nogironligiga mehnat qobiliyati sezilarli darajada pasaygan shaxslar kiradi. Nogironlar davlat nafaqasi bilan ta'minlanadi, zarur bo'lganda davolanadi, ularga protezlar beriladi, ishga, maxsus maktablarga joylashtirish uchun sharoit yaratiladi. Nogironlarni tibbiy, ijtimoiy va kasbiy reabilitatsiya qilish orqali faol hayotga, mehnatga jalb qilish dolzarb masala hisoblanadi³.

³ <https://uz.wikipedia.org>.



Har yili 3-dekabr – Xalqaro nogironlar kuni butun dunyoda insonning eng oliy qadriyati haqida yana bir bor o‘ylashga chaqiradi. Chunki har bir jamiyatning madaniyati, taraqqiyot darajasi, insonparvarligi aynan kimni qanday qo‘llab-quvvatlayotgani bilan o‘lchanadi. Ayniqsa, nogironligi bo‘lgan shaxslarning hayoti, ularga yaratilgan imkoniyatlar jamiyatning qalbi qandayligini ko‘rsatadi. Bugun dunyoda 1 milliarddan ortiq shaxs nogironlik bilan yashamoqda.⁴ Bu – insoniyatning 15 foizidan ko‘proq demakdir. Ammo yana bir haqiqat bor:

Ko‘pchilik nogironligi bo‘lgan odamlar nogiron emas, balki jamiyat moslashmagani uchun nogiron bo‘lib qoladi. BMT Konvensiyasi aynan shuni ta’kidlaydi:

“Nogironlik shaxsning xususiyati emas, balki jamiyatdagi to‘siqlar natijasidir.”⁵

Demak, imkoniyatni ular emas, biz yaratamiz.

Inson hayoti – rang-barang. Kimdir ko‘radi, kimdir eshitadi, kimdir yuradi, kimdir qo‘lida kitob tutolmaydi, kimdir dunyoni qo‘li bilan sezadi, kimdir qulog‘i bilan eshitmasdan qalbi bilan eshitadi. Nogironlik – taqdirning sinovi emas. Nogironlik – insonning atrof-muhit bilan o‘zaro munosabati natijasi. Masalan: ko‘zi ojiz odamga ovozli svetofor kerak, nogironlarga nogironlar aravachasi kerak, eshitishida nuqsoni bor insonga subtitr kerak. Shu sharoitlar bo‘lmasa, inson emas, jamiyat nogiron bo‘ladi. Dunyo tarixida minglab nogiron insonlar jamiyat o‘ylagan “chegaralarni” buzib, o‘z kuchi bilan imkoniyat yaratgan. Misol uchun Beethoven – kar bo‘lib qolganidan keyin eng buyuk asarlarini yaratdi. U nafaqat o‘zi uchun, balki butun insoniyat uchun imkoniyat yaratdi. Biz esa ular yaratgan yo‘lni davom ettirishimiz kerak.

Yurtimizda so‘nggi yillarda nogironligi bo‘lgan shaxslar hayotini yengillashtirish bo‘yicha tizimli islohotlar amalga oshirildi:

- 2020-yilda “Nogironligi bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi;⁶

- Inkluziv ta’lim tizimi bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda;

- Maxsus reabilitatsiya markazlari ochildi;

O‘zbekiston Respublikasi 2020-yil 15-iyunda “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qildi. Unda: inkluziv ta’lim tizimi, ijtimoiy reabilitatsiya, teng bandlik imkoniyatlari, arxitektura va transport tizimlarini moslashtirish kabi normalar qat’iy belgilangan. Shuningdek,

⁴ (BMT hisoboti, 2023).

⁵ <https://www.un.org/disabilities/documents/convention/convoptprot-e.pdf>

⁶ <https://lex.uz/docs/5089243>



“O‘zbekiston – 2030” strategiyasida ijtimoiy himoya sohasida 7 asosiy ustuvor yo‘nalish belgilangan bo‘lib, unda nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash alohida ahamiyat kasb etadi. UNESCO ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyoda nogironligi bo‘lgan bolalarning 40 foizidan ortig‘i sifatli ta‘limdan chetda qoldi.⁷ O‘zbekistonda esa so‘nggi yillarda inklyuziv maktablar soni keskin oshdi, maxsus pedagogika yo‘nalishlari kengaymoqda. Xalqaro Mehnat Tashkiloti ma‘lumotiga ko‘ra, nogironligi bo‘lgan shaxslarning bandlik darajasi dunyo bo‘yicha o‘rtacha 30–35% ni tashkil etadi. Bu iqtisodiy imkoniyatlar yetarli emasligini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonda “Ishga marhamat” monomarkazlari, kasb-hunar o‘rgatuvchi dasturlar va imtiyozli kvotalar orqali bandlikni oshirishga e‘tibor kuchaygan.

Nogironlik masalasi eng ko‘p shu sohada seziladi. Ko‘plab poliklinika, maktab, bino, yo‘l va transport vositalarida:

liftlar ishlamasligi, jamoat joylarida Brayl yozuvi kam, nogironlar uchun alohida belgilar bo‘lmasligi kabi to‘siqlar uchraydi. Bu esa shaxsning imkoniyatlarini cheklab qo‘ymoqda. Bugun maktablarda ko‘p bolalar bir sinfda, bir partada o‘qiydi. Ish joylarida kvota belgilandi, nogironligi bo‘lgan yoshlar IT, tikuvchilik, xizmat ko‘rsatish sohalarida faol ishlamoqda. Shuning uchun imkoniyat yaratish — davom etadigan jarayon. Insonning imkoniyati – faqat jismoniy kuchida emas, balki ruhida, intellektida, iste’dodida. “Imkoniyat – insonning qila olishi emas, balki qila olishi uchun qanday sharoit yaratilgani bilan o‘lchanadi.” Nogironlikning eng katta og‘riqli tomoni — nogironlik emas, balki odamlarning qarashi. Sotsiolog Goffman “Tamg‘alash nazariyasi”da shunday deydi: “Insonni nuqson emas, jamiyat qo‘ygan tamg‘a nogiron qiladi” deganlariday ko‘pchilik: nogironlarni ayaydi, ularni himoyasiz deb biladi, ularning imkoniyatiga ishonmaydi. Aslida esa ularning aksariyati yaxshi o‘qiydi, ishlaydi, ijod qiladi, sportda g‘olib bo‘ladi. Aksariyat o‘n ikki mushasi sog‘ insonlardan ko‘ra shu insonlar ja‘miyatga ko‘proq hissa qo‘shmoqdalar. Shuning uchun inklyuziya — nafaqat qurilish va moslashtirish, balki ongini o‘zgartirishdir. Imkoniyat yaratish — burch emas, sharaf hisoblanadi. Nogironligi bo‘lgan insonlarning har biri — sinovdan o‘tgan buyuk qalb egasi. Ularning har bir qadamida jasorat, har bir muvaffaqiyatida matonat bor. Ular uchun eshik ochish — ularga hurmat emas, insoniyatning o‘ziga bo‘lgan hurmati, ular uchun ta‘lim, ish, sog‘liq tizimida imkoniyat berish — hadya emas, ularning ajralmas inson huquqi. Shuning uchun imkoniyatni biz yaratamiz. Chunki biz jamiyatmiz. Biz bir oilamiz. Nogironligi bo‘lgan insonlar — bizning yonimizdagi insonlar:

⁷ (UNESCO, 2022).



- birining qo‘li yo‘q, lekin qalbi butun;
- biri eshitmaydi, lekin yuragi eshitadi;
- biri ko‘rmaydi, lekin hayotni bizdan ko‘ra yorqinroq his qiladi;
- biri yurmaydi, lekin orzulari yuguradi.

Ularning hayot yo‘li bir dars hisoblanadi. Biz imkoniyat yaratgan sayin jamiyat nurga to‘ladi. Biz yordam qo‘lini cho‘zgan sayin jamiyat yuksaladi.

Biz tenglik yaratgan sayin, aslida o‘z kelajagimizni yaratamiz.

Imkoniyatni biz yaratamiz – chunki har bir inson imkoniyatga loyiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi. (2020). “Nogironligi bo‘lgan shaxslarning huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi hisobotlari (2021–2024).
4. BMT. (2006). Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya.
5. Goffman, Erving. (1963). Stigma: Notes on the Management of Spoiled Identity.
6. “Inson qadri uchun” konsepsiyasi bo‘yicha rasmiy hujjatlar, 2022–2024.
23. [7.https://lex.uz](https://lex.uz).Nogironlar huquqlari to‘g‘risida.
24. [8.http://insonhuquqlari.uz](http://insonhuquqlari.uz).O‘zbekiston va nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiya